

ABDULLA AVLONIY MA'RIFIY QARASHLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ma'rifiy qarashlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil etiladi. Avloniy o'zining ilg'or pedagogik fikrlari, ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha ilgari surgan g'oyalari orqali o'zbek ma'rifatchilik harakatining yetuk vakillaridan biri sifatida tanilganligi yoritiladi. Shuningdek, Avloniy merosining hozirgi davr yoshlari tarbiyasiga ta'siri, ma'naviy va axloqiy kamolotga xizmat qiluvchi jihatlari ochib beriladi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida Avloniy g'oyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, ma'rifat, yoshlar tarbiyasi, "Turkiy guliston yoxud axloq", tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУЛЛЫ АВЛАНИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В этой статье будут проанализированы образовательные взгляды Абдуллы Авани и их роль в воспитании молодежи. Авлони известен как один из зрелых представителей узбекского просветительского движения своими передовыми педагогическими идеями, идеями духовно-нравственного воспитания. Также будет раскрыто влияние наследия Авни на воспитание молодежи нынешнего периода, аспекты, которые служат духовному и нравственному совершенствованию. В этой статье будут проанализированы образовательные взгляды Абдуллы Авани и их роль в воспитании молодежи. Авлони известен как один из зрелых представителей узбекского просветительского движения своими передовыми педагогическими идеями, идеями духовно-нравственного воспитания. Также будет раскрыто влияние наследия Авни на воспитание молодежи нынешнего периода, аспекты, которые служат духовному и нравственному совершенствованию. Показывает возможности эффективного использования идей Авлони в воспитании молодежи сегодня.

Ключевые слова: Абдулла Авлани, просвещение, воспитание молодежи, "тюркский Гулистан или этика", время воспитания, физическое воспитание, воспитание мысли, воспитание нравственности.

THE IMPORTANCE OF ABDULLA AVLONIY'S EDUCATIONAL VIEWS IN YOUTH EDUCATION

Annotation. This article analyzes the enlightened views of Abdullah Avlani and their role in youth education. Through his advanced pedagogical thought, his ideas on spiritual and moral education, Avloni is highlighted as one of the mature representatives of the Uzbek Enlightenment movement. Also, the influence of the Avlonian heritage on the upbringing of young people of the current period, aspects serving spiritual and moral maturity are revealed. This article analyzes the enlightened views of Abdullah Avlani and their role in youth education. Through his advanced pedagogical thought, his ideas on spiritual and moral education, Avloni is highlighted as one of the mature representatives of the Uzbek Enlightenment movement. Also, the influence of

the Avlonian heritage on the upbringing of young people of the current period, aspects serving spiritual and moral maturity are revealed. Today shows the possibilities of effective use of Avloni ideas in youth education.

Keywords: *Abdulla Avloni, enlightenment, youth education, "Turkish Gulistan or Morality", the time of education, physical education, mental education, moral education.*

Kirish. Tarixning turli bosqichlarida ham insonning ruhiy-ma'naviy kamolotiga jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida qarab kelinadi va ilg'or tafakkur sohiblari bu borada hamisha bilim va tajribalar asosida turli ko'rinishdagi targ'ibot ishlari olib borishadi. Yosh avlodga mukammal ta'lim-tarbiya berish orqali kelajak farovonligini kafolatlashga undashadi. Zotan, inson yaralganidan buyon uning ruhiy-ma'naviy barkamolligi, yetuk ta'lim-tarbiyasi eng muhim muammolardan bo'lib kelmoqda. Shaxs kamoloti, ruhiy pokligi birlamchi o'rinda bo'lmagan jamiyat inqirozga yuz tutishi esa tarixiy haqiqatlardandir.

XIX asr oxiri va XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy o'qitish tizimiga yangilik kiritib, yangi maktablar tashkil qilgan. U o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirib, pedagogika tarixida o'chmas iz qoldirgan. O'zbek pedagogikasining "otasi" deya e'tirof etilgan va yurtimizda birinchilardan bo'lib professor unvoniga sazovor bo'lgan.

Asosiy qism. Abdulla Avloniy faoliyati va merosini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bu haqida Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 8-oktabr kuni "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyish imzolandi. Farmoyishda keltirilgan quyidagi so'zlari o'rinlidir: "Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on qilingandavlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda"

O'zbek pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdorlari harakati, ularning boy pedagogik merosi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda shubhasiz Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari o'ziga xos o'ringa ega. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq", "Adabiyot", "Birinci muallim", "Ikkinchi muallim", "Uchinchi muallim", "Hisob", "Tarixi anbiyo", "Maktab jug'rofiyasi" kabi darsliklari; "Pinak", "Advokatlik osonmi?", "Biz va siz" kabi dramalari Turkiston o'lkasi xalqlari o'rtasida ma'lum va mashhur bo'lgan. Avloniyning yuqorida ta'kidlab o'tilgan darsliklarining ba'zilari bir necha marta nashr qilingan bo'lsa, ba'zilari qo'lyozma holicha qolib ketgan. Abdulla Avloniy darsliklarida maktab o'quvchilariga ta'lim berish bilan birga tarbiya, asosan axloqiy tarbiya berishga katta e'tibor bergan. Axloqqa Avloniy quyidagicha ta'rif beradi: "Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur".

Avloniy yaxshi va yomon xulqlar borasida batafsil lizoh berilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tajribali pedagog sifatida inson tarbiyasiga go'dakligidanoq jiddiy e'tibor qaratish zaruratini ilgari suradi. Alloma bola tarbiyasi borasida fikr yuritar ekan, ushbu mulohazalarni muhim sanaydi: "Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur". Avloniy ta'kidicha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega. Shu asosda u bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi bo'limlarga ajratadi va ularning ahamiyatini tavsiflaydi:

1. Tarbiyaning zamoni. Ushbu bo'limda Abdulla Avloniy tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini

ta'kidlaydi: "Tarbiya xususiy ishe mas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq", deb hisoblaydi adib.

2. *Badan tarbiyasi.* Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir" -deya ta'kidlaydi.

3. *Fikr tarbiyasi.* Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikri, tafakkuri tarbiyasini o'qituvchilar faoliyatiga bog'laydi: "Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur". Shu o'rinda alloma ta'lim va tarbiya jarayoni uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlab, jumladan shunday deydi: "Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmay durgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur".

4. *Axloq tarbiyasi.* Risolada ushbu masalaga nihoyatda keng o'rin ajratilgan. Alloma insoniy xulqlarni yaxshi va yomon toifalarga ajratadi va har biriga alohida tushuntirish berib o'tadi va fikr-mulohazalarini hayotiy misollar orqali dalillashga harakat qiladi. Chunonchi, yaxshi xulqlarni shunday izohlaydi: "Yaxshi xulq – bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, sadoqat, muhabbat va afvdur". Yomon xulqlar esa quyidagicha keltiriladi: "Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgon, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimizda masmum bo'lgan axloqi zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, ta'ma, zulmdur", deydi va ularning har biri borasida alohida to'xtalib, ularning mazmun- mohiyatini, ijtimoiy zaruratini yetarlicha asoslab beradi.

Avloniyning fikricha insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi narsa axloq tarbiyasidir. Abdulla Avloniy inson xulqini ikkiga-yaxshi va yomon xulqlarga bo'ladi: "Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo'lub, "yaxshi xulq"; agar tarbiyasiz o'sub yomon ishlarni ishlaydurgon bo'lub ketsa yomonlikka tavsif bo'lub, "yomon xulq" deb atalur".

Abdulla Avloniyning xalqni ilmu ma'rifatga da'vat qiluvchi ilmi, bilimli bo'lishga chaqiruvchi she'r va hikoyalari axloqiy tarbiyaning muhim vositasidir. "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligidagi "Ilm", "Aqsomi ilm", "Fatonat", "Hifzi lison", "Jaholat", "Haqqoniyat" boblarida bu masalaga batafsil to'xtalib o'tadi. Avloniyning fikricha "Ilm deb o'qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur". Millat kelajagi, taraqqiysi yoshlarning ilm va ma'rifatga, hunar va san'atiga bog'liqdir. Avloniy pedagogik ijodida ilmu ma'rifatga da'vat qiluvchi she'rlar muhim o'rin egallaydi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, shoirning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plamiga kirgan aksariyat she'rlardan o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash maqsadida foydalanish mumkin.

Avloniy ilk darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida e'tirof etilganligi, asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga doir tushunchalarning, g'oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilinganligi, qolaversa, Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta'lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she'riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asosida ko'zga tashlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Abdulla Avloniy atoqli pedagog, o'qituvchi sifatida butun umrini ma'rifatga bag'ishladi. Uning pedagogik qarashlarida Vatanga bo'lgan muhabbat, odob-axloq, tarbiya, ma'rifat, inson kamoli jamiyat rivoji uchun xizmat qilish yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari juda katta ahamiyatga molikdir. Ta'lim-

110 tarbiyaga bag'ishlangan noyob va mukammal bu kitob har tomonlama yetuk, sog'lom fikrli kelajak avlod va zamonaviy pedagoglarni tarbiyalashga xizmat qildi. Bu asarda mutafakkir vatanparvarlik, ona tiliga muhabbat, do'stlik, vijdoniylik, aql, jaholat, g'azab kabi xislat va illatlar haqida fikr yuritadi va xulosalar chiqaradi. Abdulla Avloniy ushbu asarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi va asar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik, qo'llanmalar yaratilishiga asos bo'ldi. Zero, bu inson pedagogika fanining asoschisidir. Uning pedagogika, tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi 2020-yil 8-oktyabr, F-5598-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020y., 09/20/391/0777-son).
2. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" T.: "Yoshlar", 2018 y
3. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: "Ma'naviyat" 2009 y.
4. Samadova S.S. "The significance of the Jadids' scientific heritage in developing the spirituality of yourth in New Uzbekistan" // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. Volum 1. Number 4.2025.
5. Samadova S.S. "The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan"// Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1.2025.
6. Samadova.S.S. Jadidlarning ma'rifiy qarashlari va ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi.// Pedagogik mahorat.2-son. 2025y.fevral.
7. Samadova S.S. The role of Jadid theater in the development of youth spirituality.// Journal of Multidisciplinary Academic Business Studies(JoMABS). Indonesia. Volume 2, Number 3, 2025.